

**Dirijyorlikda jo'rlik qilish G.Mushel fortepiano va xalq cholg'u orkestri konserti misolida**

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi

Cholg'u ijrochiligi" fakulteti

"O'zbek xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi" Kafedrası 1-bosqich magistranti

**Rasulova Sevara**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada taniqli bastakor G.Mushel tomonidan yaratilgan fortepiano va xalq cholg'ulari orkestri uchun konsert asari misolida dirijyorlik san'atida jo'rlik qilishning metodik yondashuvlari, dirijyorning orkestr va solist bilan o'zaro hamkorligi hamda ijro jarayonidagi strukturaviy, temp va dinamik muvofiqlik masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Dirijyor, solist, jo'rlik qilish, struktura, temp, dinamika, motiv.

**Аннотация:** В данной статье на примере концерта для фортепиано и оркестра народных инструментов, написанного известным композитором Г.Мушелем, рассматриваются методические подходы к аккомпанементу в дирижёрском искусстве, взаимодействие дирижёра с оркестром и солистом, а также вопросы структурной, темповой и динамической согласованности в процессе исполнения.

**Ключевые слова:** Дирижёр, солист, аккомпанемент, структура, темп, динамика, мотив.

**Annotation:** This article examines the methodologic approaches to accompaniment in conducting, using the concerto for piano and folk instrument orchestra composed by the renowned composer G.Mushel as an example. It explores the conductor's collaboration with the orchestra and the soloist, as well as structural, tempo and dynamic coherence during the performance process.

**Key words:** Conductor, soloist, accompaniment, structure, tempo, dynamics, motive.

Dirijyorlik san'ati-bu nafaqat texnik boshqaruv, balki ijodiy rahbarlikdir. Musiqa san'ati va uning ijrosida ayniqsa, orkestr bilan ijro qilinadigan asarlarda dirijyorning roli beqiyosdir. Musiqa ijrosining mohiyati nafaqat texnik ifodalanishda balki, ijrochi va dirijyor o'rtasidagi o'zaro aloqada ham mujassamlanadi. Dirijyorlik san'ati asosan orkestrni boshqarish va jamoaning barcha musiqiy elementlarini bir butunlikka keltirishga qaratilgan. Shunday bo'lsa-da, dirijyorning roli faqat orkestrni boshqarishdan iborat emas balki, orkestr va solist o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Dirijyor orkestrni boshqarish bilan birga har bir asar ichidagi musiqiy g'oyani, uning tuzilishini ifodalash uchun o'zining o'zgacha yondashuvini ishlab chiqishi zarur.

Dirijyorlikda jo'rlik qilish, ya'ni orkestr va solistlar o'rtasida muvozanatni saqlash, har bir musiqiy elementning o'z o'rnini topishiga yordam berish bu dirijyorning eng murakkab va mas'uliyatli vazifalaridan biridir. "Jo'rlik qilish" atamasi odatda, musiqiy jamoaning bir-birini to'liq tushunishini va bir vaqtning o'zida birlashtirilgan musiqiy tasavvurga ega bo'lishini anglatadi. Bu jarayon ayniqsa fortepiano va xalq cholg'u orkestri kabi murakkab orkestr tuzilmalari uchun juda muhimdir. G.Mushelning fortepiano va xalq cholg'u orkestri uchun yozilgan konsertida dirijyorning vazifasi aynan shunday jo'rlik qilishini talab etadi. Asar bir tomondan fortepiano solisti uchun yuksak texnik murakkabliklarni o'z ichiga olsa, boshqa tomondan orkestr turli bo'limlarining bir-biriga mos kelishini talab qiladi. Bu yerda dirijyor orkestrni to'g'ri boshqarish bilan birga, solistning ijrosini ham to'liq qo'llab-quvvatlashi lozim bo'ladi.

G.Mushelning fortepiano va xalq cholg'u orkestri konserti asari struktura jihatdan ikki bo'limga bo'linadi: birinchi bo'limda fortepiano solisti orkestr bilan birgalikda yuqori tempda ijro etadi, ikkinchi bo'limda esa yengil va lirik musiqiy rejalashtirish orqali asar sokinlashadi. Har ikkala bo'limda ham dirijyorning jo'rlik qilish mahorati muhim ro'l o'ynaydi. Solist bilan orkestr o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda tempning aniqligi muhim ahamiyatga ega. Mushel konsertida tez o'zgaruvchan temp o'tishlar mavjud bo'lib, dirijyor bu o'zgarishlarni oldindan sezib, orkestrga belgilangan imo-ishoralar orqali aniq yo'nalish berib boradi.

Birinchi bo'limda fortepiano solisti orkestr bilan intensiv va energiya bilan ishlashga to'g'ri keladi. Dirijyorning roli shu yerda orkestrning har bir bo'limi bilan alohida bog'lanishini ta'minlashda va solist bilan mos kelishini boshqarishda namoyon bo'ladi. Orkestrning birdamligini ta'minlash va solistning texnik qiyinchiliklarni yengib o'tishiga yordam berish, dirijyorning muhim vazifalaridan biridir.

Ikkinchi bo'limda esa, musiqaning nisbatan tinchroq va nozik bo'lishi dirijyorning orkestr va solist o'rtasidagi tasavvurini yanada boyitadi. Dirijyor musiqiy motivlarni qisqa va sezgir uslubda taqdim etish orqali orkestrning ifodasini to'liq nazorat qiladi, shuningdek solistning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

G.Mushelning asari aniq taktikalarni talab qiladi. Dirijyor faqatgina orkestrni boshqaribgina qolmay, solist va orkestrning o'zaro aloqasini musiqaning tempi va dinamikasini muvofiqlashtiradi. Dirijyor fortepiano va orkestrning turli qismlarini muvozanatlash uchun tempni o'zgartiradi va har bir bo'limning dinamikasi ustidan nazorat o'rnatadi. Forteplano solisti orkestrga qaraganda ko'proq quvvat va texnik xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Dirijyor solistning harakatlarini va orkestrning javoblarini tezda his qilishi kerak. Musiqa o'zgarishlarini vaqtida aniqlash va kerakli qarorlarni qabul qilishda dirijyor uchun sezgirlik juda muhimdir. Shuningdek jo'rlik qilish jarayonida barcha musiqiy bo'limlar bir-biriga mos ravishda birlashtirilishi lozim. Dirijyorning uslubi orkestrning musiqiy qismlarini muvofiqlashtirish hamda solist bilan o'zaro bog'lanishdagi muhim omil hisoblanadi. U solistni qo'llab-quvvatlash va orkestrning har bir bo'limini aniq va mustahkam boshqarish uchun muvofiq harakatlar qilishi lozim. Bu jarayonda dirijyor quyidagi metodlardan foydalanadi:

1. Solist bilan ko'z orqali bog'lanish;
2. Tempni solistga mos holda erkin o'zgartirish;
3. Har bir kirish va chiqishda aniq imo ko'rsatish;
4. Ayniqsa frazalarda birgalikda "nafas" orqali musiqiy birlik yaratish.

Dirijyorlikda jo'rlik qilish musiqaning badiiy va texnik jihatlarini muvosiqlashtiruvchi yondashuvni talab etadi. G.Mushelning fortepiano va xalq cholg'u orkestri konserti asarida dirijyorning bu vazifasi ayniqsa dolzarbdir. Chunki orkestr va solist o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlash uchun diqqat va sezgirlikni oshirishi zarur. Musiqa ijrosining muvaffaqiyati faqat orkestr va solistning birgalikdagi harakatlarida emas balki, dirijyorning boshqarish san'atida ham mujassamlanadi. Bu jarayonni to'g'ri tushunish va amalga oshirish har qanday dirijyor uchun nafaqat san'atni balki, musiqaning ichki tuzilishini ham chuqur his qilishni talab etadi.

**Xulosa** qilib aytganda G.Mushelning fortepiano va xalq cholg'ulari orkestri konserti dirijyorlikda jo'rlik qilish san'atining yorqin namunalariidan biridir. Ushbu asar ijrosida dirijyorning solist bilan doimiy muloqoti, orkestr ustidan nazorati va butun musiqiy struktura ustida yuritgan izchil ishlari asarning to'liq ochilishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham dirijyorlikda jo'rlik qilish-bu faqat texnika emas, balki ijodiy hamkorlikdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F.Abdurahimova “Orkestr sinfi”. “G’afur G’ulom” Toshkent 2012.
2. F.Abdurahimova “Orkestr sinfi”. “Musiq” Toshkent 2015.
3. Sh.Umarov “Dirijyorlik”. “Tamaddun” Toshkent 2019.
4. N.Bahadirov “Orkestr sinfi”. “Innavatsion” Toshkent 2022.
5. <https://uz.wikipedia.org>.

